

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MAHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Qarshi muhandislik
iqtisodiyot instituti rektori

O.SH.Bazarov

“ _____ ” _____ 2022 y

**HUDUDLAR DAVLAT KADASTRI
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi	300 000	-	Ishlab chiqarish- texnik soha
Talim sohasi	310 000	-	Muhandislik ishi
Talim yo‘nalishi	5311500	-	Geodeziya, kartografiya va kadastr (BIQ)

Fanning o‘quv dasturi Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: **G‘.Aliqulov** – QarMII, “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrası dotsent
J. Mirzaev -QarMII “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrası assestenti

Taqrizchilar: **K.Xo‘jakeldiyev** – QarMII “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrası dotsenti.

A.Jo‘rayev - “O‘zdavyerloyiha” DILI
Qashvilyerloyiha bo‘linmasi bosh muhandisi

Fanning o‘quv dasturi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022 yil “_____”
“_____”dagi “_____” - sonli bayonnoma).

KIRISH

Ushbu fan talabaning hududlarning tabiiy-resurs va xo‘jalik salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik holatini hisobga olish hamda baholash maqsadlarida hududlarning davlat kadastrini tuzish va yuritish jarayonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish imkonini beradi.

«Hududlar davlat kadastrini» fani 4-kurs bakalavrlari uchun ixtisoslik fani hisoblanadi va bo‘lg‘usi mutaxassisning ilmiy texnikaviy, ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarishdagi faoliyatini belgilaydi xamda hududlar kadastrini respublika, mintaq, tuman va shaxar darajasida yuritishni o‘rgatadi.

Fanning maqsad va vazifalari

«Hududlar davlat kadastrini» fanining maqsadi talabalarga xududlar davlat kadastrini tuzishning zamonaviy tamoyillarini va ularni yuritish bo‘yicha zaruriy ko‘nikma va malakani shakllantirishdir asosida O‘zbekiston Respublikasida respublika, mintaq, tuman va shaxar darajasida xududlar kadastrini tuzish vazifalarini o‘rgatishdan iboratdir.

Fan bo‘yicha magistrnlarning bilim, malaka va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar

- xududlar davlat kadastrini tizimi va uni shakllantirish to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar hamda ularni yuritish, xususan ularning huquqiy, texnik, texnologik va iqtisodiy qirralarini haqida ***bilim va tasavvurga ega bo‘lishi;***

- xududlardagi kadastr obektlarini shakllantirish va yuritishning xuquqiy xamda tashkiliy asoslarini, rivojlangan mamlakatlarda yuritilayotgan kadastr ishlarining tajribalarini, turli obektlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatiga olish, xisoblarini yuritish, shuningdek baholashni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

- xududlar davlat kadastrini tizimining o‘rni va xususiyatini, unda bajariladigan ishlarining mazmuni, mohiyati va ahamiyati, shuningdek respublika, mintaq, tuman va shaxar darajasida yuritilishin shakllantirish ***ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.***

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

“Hududlar davlat kadastri” fani umummutaxassislik fani hisoblanib 5311500-Geodeziya, kartografiya va kadastr ta'lim yo'nalishining 7-8-semestrlarida o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan umummetodologik (Ilmiy tadqiqot metodologiyasi, Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti) umummutaxassislik (Davlat kadastri, Yer kadastri, Yer huquqi va Topografik geodezik ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va boshqarish) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Hozirgi kunda hududlarning tabiiy-resurs va xo'jalik salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik holatini hisobga olish hamda baholash maqsadlarida hududlarning davlat kadastrini olib boorish katta ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun “Hududlar davlat kadastri” fanida alohida talabalar yuqorida keltirilgan masalalarni ilmiy texnikaviy, ilmiy tadqiqot yangiliklarini ishlab chiqarishga joriy etish, bu bilan sohadagi xarajatlar tannarxini 20 - 30 % ga qisqarishga olib keladi. Shuning uchun ushbu fan asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, sohadagi fanlarning ajralmas bir bo'g'inidir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “Hududlar davlat kadastri”fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion - pedagogik texnologiyalarini tadbqiq qilish muxim ahamyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektorn materiallar, virtual stenular hamda geodezik signal, markaz va reperlarning namunalari va maketlaridan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslariga mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu

esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Dialogik yondashuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash. yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

ASOSIY QISM

1-modul. Hududlar davlat kadastrı tizimi va uni tashkil etish

1-mavzu. Hududlar davlat kadastrı tizimi maqsadi, vazifalari va tamoyillari

Hududlar davlat kadastrining maqsad va vazifalari. Hududlarning davlat kadastrini yuritish tamoyillari.

2-mavzu. Hududlar davlat kadastrı va ma'lumotlar tizimi

Hududlarning davlat kadastrı tizimi Hududlar davlat kadastrı ma'lumotlarini yaratish va taqdim etish tizimi.

3-mavzu. Hududlar davlat kadastrini tashkil etish va yuritish xujjatlari

Hududlar davlat kadastrini tashkil etish va yuritish normativ-huquqiy hujjatlari. Hududlar davlat kadastrini tashkil etish va yuritishda asosiy tushunchalar.

4- mavzu. Hududlar davlat kadastrı ma'muriy -hududiy birliklari va obektlari

Hududlar davlat kadastrini tashkil etish va yuritishda ma'muriy -hududiy birliklar. Hududlar hududlar davlat kadastrı obektlari.

5-mavzu. Hududlar davlat kadastrini bo'yicha maxsus vakolatli organlar

Hududlar davlat kadastrini tashkil etish va yuritish bo'yicha maxsus vakolatli organlar. Hududlar davlat kadastrining tashkiliy tuzilmasi.

2-modul. "Hududlar davlat kadastrini tuzish va yuritish"

6-mavzu. Hududlar davlat kadastrini tuzish tartibi

Hududlarning davlat kadastrini tuzish. Hududlarning davlat kadastrini tuzish bosqichlari.

7-mavzu. Hududlarning davlat kadastrini yuritish

Hududlarning davlat kadastrini Respublika darajasida yuritish. Hududlarning davlat kadastrini mintaq darajasida yuritish. Hududlarning davlat

kadastrini tuman darajasida yuritish. Hududlarning davlat kadastrini shahar darajasida yuritish.

8-mavzu. Hududlarning davlat kadastri axborotidan foydalanish

Hududlarning davlat kadastri axborotini foydalanuvchilarga berish. Hududlarning davlat kadastri axborot resurslaridan foydalanish va xavfsizligini ta'minlash.

Amaliy mashg'ulotlarning tahminiy ro'yxati

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Hududlar davlat kadastrini tashkil etish va yuritish normativ-huquqiy hujjatlarini o'rganish.
2. Hududlar davlat kadastrini tashkil etish va yuritishda asosiy tushunchalarning mazmuni va mohiyatini taxlil qilish.
3. Hududlar hududlar davlat kadastri obektlarini o'rganish.
4. Hududlar davlat kadastrini tashkil etish va yuritish bo'yicha maxsus vakolatli organlarning vazifalari va vakolatlarini o'rganish.
5. Hududlar davlat kadastrining respublika, mintaq, tuman va shahar darajasidagi tashkiliy tuzilmasini o'rganish.
6. Hududlarning davlat kadastrini respublika, mintaq, tuman va shahar darajasida yuritish tamoyillarini o'rganish.
7. Hududlar davlat kadastri ma'lumotlarini respublika, mintaq, tuman va shahar darajasida yaratish va taqdim etish tizimini o'rganish.
8. Hududlarning davlat kadastrini respublika, mintaq, tuman va shahar darajasida tuzish bosqichlarini o'rganish.
9. Hududlarning davlat kadastrini Respublika darajasida yuritishni o'rganish.
10. Hududlarning davlat kadastrini mintaq darajasida yuritishni o'rganish.
11. Hududlarning davlat kadastrini tuman darajasida yuritishni o'rganish.
12. Hududlarning davlat kadastrini shahar darajasida yuritishni o'rganish.

13. Hududlarning davlat kadastrı axborot resurslaridan foydalanish va xavfsızligini ta'minlashni o'rganish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qıtuvchi tomonidan o'tkazilishi lozim.

Mustaqil ishlarni tashkil etish shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Davlat yer kadastrı;
2. Foydali qazılma konlari, belgilari va texnogen hosilalar davlat adastrı;
3. Davlat suv kadastrı;
4. Davlat o'rmon kadastrı;
5. O'simliklar dunyosi obektlari davlat kadastrı;
6. Hayvonot dunyosi davlat kadastrı;
7. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrı;
8. Binolar vainshootlar davlat kadastrı;
9. Davlat shaharsozlik kadastrı;
10. Gidrotexnika inshootlari davlat kadastrı;
11. Tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat kadastrı;
12. Avtomobil yo'llari davlat kadastrı;
13. Temir yo'llar davlat kadastrı;
14. Transport quvurlari davlat kadastrı;
15. Aloqa obektlari davlat kadastrı;
16. Energetika obektlari davlat kadastrı;
17. Chiqindilarni ko'mib tashlash va utillashtirish joylari davlat kadastrı;
18. Tabiiy xavfi yuqori bo'lgan tegrallar davlat kadastrı;
19. Texnogen xavfi yuqori bo'lgan tegrallar davlat kadastrı;
20. Kartografiya-geodeziya davlat kadastrı;
21. Yerdan foydalanuvchilar, tuman miqyosida axborotlar yig'ish.
22. Davlat kadastrlari yagona tizimi bo'yicha axborotlar bazasini yaratish.
23. Yerdan foydalanuvchilar, viloyat miqyosida axborotlar yig'ish.
24. Yerdan foydalanuvchilar, Respublika miqyosida axborotlar yig'ish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Dasturning informatsion – uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy ilg'or interfaol usullaridan, pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining prezentatsiya (taqdimot), multimedia va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, klaster, blits-so'rov, guruh bilan ishlash, insert, taqdimot, keys stadi kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Bobojonov A.R., Raxmonov K.R. va boshqalar, Davlat kadastrlari asosi . Ma'ruzalar to'plami. T.. TIMI, 2004.
2. Nishonboyev N.M. Davlat kadastrlari asoslari. O'quv qo'llanma T.TAQI 2008.
3. Yer munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solishga doir qonun va meyoriy hujjatlar to'plami. T.;, 2000y.
4. Juraqulov D.O. Yer va bino inshootlar huquqi. – T.: SamDAQI, 2019. – 315 b.
5. Juraqulov D.O., Yarkulov Z.R., Burxonov T.S. Yer huquqi va kadastrlari. – Samarqand: SamDAQI, 2019. – 328 b.
6. Sizov A.P.Zemleustroystvo i kadastrlari. - M.: MIIGAiK, 2016. –82s.
7. Thomas M. Lillesand, Ralph W. Kiefer, Jonathan W. Chipman. Remote sensing and image interpretation. Sixth edition – Chaudhary Press (India), 2016. – 754p.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. "O'zbekiston".2016 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi «Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni

kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5065-son farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi "Yer kodeksi".

4. O'zbekiston Respublikasining. «Davlat kadastrlari to'g'risida"gi Qonuni.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 30 iyundagi "Ayrim davlat kadastrlarini yuritish tartibi to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 152-son qarori.

Internet saytlari

1. <http://www.stroy.ru>

2. www.lex.uz– O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

3. <http://www.rambler.ru>

4. www.kadastr.ru

5. <http://www.gisinfo.ru/edu/edu.htm>

